

## BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI TARAVMALARNING TA'LIMGA TA'SIRI

Muborak Anorboyeva

G'allaorol tumani 29-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Ta'lim hamisha psixologiya bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda bolalar ruhiyatini anglash, ulardan to'g'ri foydalana olib, bolaning diqqatini o'qishga jalg etish pedagogdan darsga va ishiga bo'lgan mas'uliyatidan tashqari ruh, alohida individga bo'lgam muhabbatni ham talab etadi. Negaki, o'zbek jamiyatida o'quvchi ota-onasi va ustozi birligi kam kuzatiladi. Bunda yo ota-onsa, yo pedagog o'quvchi bilan yolg'iz ruhiy iztiroblarni yengishga majbur bo'ladi. Bu ayniqsa, o'qish-yozishni o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarda ko'p kuzatiladi. Hatto bu o'quvchini na ota-onasi, na ustozi qo'llamaydi.

Notalia Remish shunday yozadi: “Buni bolalar bilan nega muhokama qilish kerak?

Siyosat, din, o'lim, bola tug'ilishi, janjallar, pul va boshqa ko'plab narsalarni ota-onalar farzandlari bilan muhokama qilishni istamaydi. Keyinga qoldirishadi. Hali barvaqt. Bolalarga hamma o'lishini aytib, bolaligini nega o'g'irlash kerak? Yoki umuman qayerdadir hozir odamlar o'layotganini nega aytish kerak?

Bog'chadagi biror bolakayning buvisi o'lganida, boshqalarning qayg'uli yuziga qarab, uning uyidan olib kelgan jumllari va ko'z yoshlariga qarab bolangiz o'lim haqida bilib oladi, uning oila uchun fojialigini anglaydi va o'limdan qo'rqishni boshlaydi. Bu vaqtida esa siz ota-onsa sifatida o'lim mavzusini ko'chadagi o'lik qushchadan boshlab ochishingiz, xotirjamlik va fojiaviyiksiz tushuntirishingiz mumkin edi.

U “qimmat/arzon” haqidagi suhbatlarni eshitadi, siz esa do'konda “bo'ldi, yetar, pul yo'q” deysiz. Lekin pul nima degani, ular qayerdan olinadi, nega zarur va oilangizga qanchalik zarur, bularni tushunmaydi. Navbatdagi o'yinchoqni olib berishingizni so'raganida Afrikada och qolayotgan bolalar haqida eshitadi, lekin bu uning qadriyatlar tizimini shakllantirmaydi.

U sizlarning janjallaringizni ko'radi va maktabdagi dugonasining yig'lashiga sabab bo'lgan qo'rqinchli so'zni — “ajrashish” ni eslaydi. Bundan oldin esa unga ajrashish — dunyoning oxiri emasligini tushintirsangiz bo'lardi. Bu ham hayot, lekin boshqacha. Unda ham ko'p qiziq va yangi narsalar bor.

Aynan SIZ o'limdan qo'rqsiz, SIZ ajrashishdan qo'rqsiz, SIZ pulsiz qolishdan qo'rqsiz. Bola esa — hali toza oq varaq. Bu tushunchalarni qanday anglatsangiz, uning munosabati ham shunday bo'ladi. Aynan shunday suhbatlar uning hayotida o'zgacha qadrli bo'ladi, “maktabda nima gap?” yoki “bugun nima vazifa berishdi?” degan sodda savollar emas”.

Mana yoziqlarning o'zidan ham bollarga kattalardek munosabatda bo'lish kerakligini uqish kerak. O'zbek oilalari farzandlarining umidsiz va ishonchsiz bo'lib qolishining sababi ham ota-onalarining ular bilan yetarlicha suhbat qura olmasligi, o'zini devorlar bilan o'rashi.

Endi shunday vaziyatda maktabdagi ta'lim haqida gaplashsak. Ba'zi muallimlar bolalar psixologiyasini to'g'ri anglamasdan o'quvchilarga zug'um qiladi. Bu zug'um nimalarda



ko'rningizni: dars tayyorlamagan o'quvchini tengdoshlari yonida kamsitish, dakki berish, kaltaklash, tana jarohatlari yetkazish, haqorat qilish. Bola esa singan ruh bilan yana qayta bu darsga tayyorgarlik ko'rolmaydi. Shu sharoitda "sen odam bo'lmasan baribir" degan qo'pol so'zlarni muallimidan eshitadi. Ta'lim olish bola ongida qo'rqinchli travmaga aylanib qoladi

Nima qilish zarur?

Pedagogdan nima talab etiladi?

Yechim bormi?

Avvalo, o'zlashtirishi past bo'ladimi yoki baland, har bir o'quvchiga katta iste'dod deb qarash zarur. O'ta to'polonchi o'quvchilarning esa energiyasini to'g'ri yo'naltirishni o'rgatish, o'quvchilarning holati yuzasidan ota-onada bilan doimo bog'lanib, birgalikda ishslash zarur. Aks holda, bola ongida oila va ta'limdagagi travmalar hamisha azobli vaziyatlar yasab qolaveradi. Bolalarga qaysi kasbni tanlasa ko'p pul topish haqida emas, qanday qilib o'zi xohlagan kasbda ko'p daromad qila olish mumkinligini o'rgatish kerak. Bu esa kelajakka kiritiladigan ruhiy sarmoya bo'lib xizmat qiladi.